



## TA'LIM TIZIMIDA "UNIVERSITET 3.0" MODELINI QO'LLASH AFZALLIKLARI

Dotsent **Davlyatova Gulnara Muxamedjanovna**  
Farg'ona politexnika instituti

**Annotatsiya.** Bugungi kunda oliy ta'lim sohasi oldida turgan yeng muhim masalalardan biri ta'lim sifati va baholash tizimini takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Bu holat oliy ta'lim tizimini isloh qilish, nazorat qilish, baholash va ta'lim sifatini har tomonlama, ham nazariy, ham amaliy jihatdan ta'minlaydigan me'yoriy-huquqiy bazani o'rganish va tahlil qilishning dolzarbligini belgilaydi. Shunga ko'ra, ushbu maqolada ham oliy o'quv yurtlarining ilm-fanga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga faol e'tibori, o'qitishda innovatsion usullar, tadbirkorlik sohasi bilan uzviy aloqa o'rnatish, universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini bevosita ishlab chiqarishga joriy yetish kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** universitet-1.0, universitet-2.0, universitet-3.0, ijodiy universitet, innovatsiya va tadbirkorlik universiteti, tarmoq universiteti.

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ «УНИВЕРСИТЕТ 3.0» В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Доцент **Давлятова Гулнара Мухамеджановна**  
Ферганский политехнический институт

**Аннотация.** В настоящее время одним из важнейших вопросов, стоящих перед сферой высшего образования является совершенствование системы качества и оценки образования, а также подготовка конкурентоспособных кадров. Такая ситуация определяет актуальность изучения и анализа нормативно-правовой базы, которая позволит реформировать систему высшего образования, контролировать, оценивать и обеспечивать качество образования во всех аспектах, как теоретически, так и практически. Соответственно, в статье освещаются такие вопросы, как активное участие университетов в развитии экономики, основанной на науке, инновационные методы обучения, установление неразрывной связи с предпринимательской сферой, непосредственное внедрение в производство научно-исследовательской работы, проводимой в университете.

**Ключевые слова:** высшее образование как предприятие, Университет-1.0, Университет-2.0, Университет-3.0, креативный университет, университет инноваций и предпринимательства, сетевой университет.

## PERSPECTIVES OF USING "UNIVERSITY 3.0" MODEL IN THE EDUCATION SYSTEM

Assistant professor **Davlyatova Gulnara Mukhamedjanovna**  
Ferghana polytechnic institute

**Annotation.** Currently, one of the most important issues facing the field of higher education is improving the system of quality and assessment of education, as well as training competitive personnel. This situation determines the relevance of studying and analyzing the regulatory framework, which will allow reforming the higher education system, monitoring, evaluating and ensuring the quality of education in all aspects, both theoretically and practically. Accordingly, the article highlights such issues as the active participation of universities in the development of a science-based economy, innovative teaching methods, the establishment of an inextricable connection with the business sector, and the direct implementation of research work carried out at the university into production.

**Key words:** higher education as an enterprise, University-1.0, University-2.0, University-3.0, creative university, the University of innovation and entrepreneurship, the network University.

### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bugungi mehnat bozoriga kadrlarni taqdim etish borasidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kelgusida Oliy ta'lim muassasasi qanday bo'lishi kerak? Qanday kadrlarni tayyorlashi zarur? Bunday savollarga javob berish uchun albatta umumiy holatda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni, xususan oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni mazmun mohiyatiga e'tiborni qaratish kerak.

2019-yil 8-oktyabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoniga asosan (Farmon, 2019), O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish, ularni Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities TOP-500 ro'yxatiga kiritish, shuningdek respublikadagi kamida 10 ta OTMni ushbu reytinglarning TOP-1000 ro'yxatiga kiritish, mamlakat oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish, xalqaro hamkorlikni, shu jumladan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishini yo'lga qo'yish va h.k. mamlakatda oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish imkoniyatini beradi (Farmon, 2019).

### **Adabiyotlar sharhi.**

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, takomillashtirish masalalarini amalga oshirishga qaratilgan vazifalar dastlab 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"da, xususan, 4.4.-punktida belgilangan bo'lib, unda "...sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" (Farmon 2017) vazifalariga ustuvorlik berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunlari (Qonun, 2016), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Farmon, 2018) qarorlari (Qaror, 2017; Qaror, 2017; Qaror, 2018), Vazirlar Mahkamasining qarorlari (Qaror, 2017) hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar (Qaror, 2017)da oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish va baholash, OTMlari reytingi va raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyasini hamda OTMlarida raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish zarurati ko'rsatib o'tilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ta'lim sifatini takomillashtirish masalalaring o'rganishda ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, tizimli yondashuv, analiz va sintez, tarixiylik tamoyillari asosidagi usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Hozirgi kunda oliy ta'lim sohasi oldida turgan eng muhim masalalardan biri – bu, ta'lim sifati va baholash tizimini takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu holat oliy ta'lim tizimini isloh qiladigan, ta'limni sifatini nazorat qiladigan, baholaydigan va ta'minlaydigan normativ-huquqiy asoslarni har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalari 20-asrning o'rtalarida oliy ta'lim o'zining maqomini yo'qotishini boshlaganligini ko'rsatdi. Iqtisodiyotni globallasuvi, texnik-texnologik ekspantsiya, yangi bilimlarni shakllanishining o'sishi oliy ta'limning jamiyatning rivojlanishidagi ma'sulliyatini va ta'lim olishning ommaviylashuvini oshiradi. Ta'limning ommaviylashuvi – bu tayanch resurs bo'lib, undan jamiyatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun samarali foydalanish mumkin. Xususan, jamiyatda tadbirkorlik kompetentsiyasini va texnologik madaniyatini ommalashtirish uchun foydalaniladi. Bunday sharoitlarda jamiyat oliy ta'limdan mehnat bozorida shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi. 1990-yillarda ta'limning jamiyatdagi o'rni o'zgarib boshladi. Xususan, universitetlar Yevropa Ittifoqining ilmiy tadqiqot va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha dasturlariga kiritildi. Ayniqsa 1999 yildagi

Bolonya jarayoni ta'lim jarayonining jamiyatdagi o'rnini tubdan o'zgartirish imkoniyatlarini berdi. Bunda ta'lim bozor islohatlarini yoritish va amalga oshirish vositasiga aylandi. Ta'lim xizmat ko'rsatish maqomini oldi, talaba esa ta'limning iste'molchisiga aylandi. Bolonya jarayoniga ko'ra oliy ta'lim muassasalari daromad kelishi jihatidan talaba uchun raqobatlashishi, talaba esa ta'limning sotib oluvchisi bo'lishi zarur (Lane, 2013). Bunday sharoitda raqobat ta'lim berish sifatini oshirishni rag'batlantirishi, hukumat esa eng samarali oliy ta'lim muassasalarini qo'llab quvvatlashi kerak bo'ladi. Bunda samaradorlik ishlab chiqarish indekatorlari asosida aniqlanadi (Новиков, 2002).

Ishlab chiqarish indikatorlari tarkibiga korxonada mehnat unumdorligini o'sishini va daromadni ko'payishini kiritish mumkin. Oliy ta'lim korxonasi sifatida fikrlashni boshlaydi. Oliy ta'lim muassasi xodimlarining ish haqi ta'lim oluvchi talabalar soni bilan bog'lanadi. Xususan, hozirda jahonda yuz berayotgan rivojlanishlar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirishga balki ta'lim sohasiga ham alohida talabni qo'ymoqda. Xususan, bitiruvchilarga bilim berilishiga va ular tomonidan olingan bilimlarni amaliyotga joriy qilinishiga erishish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Tarixan oliy ta'lim muassasalarining o'rnini iqtisodiy va ijtimoiy shart – sharoitlarga bog'liq holda o'zgarib kelgan, shuningdek mamlakatdagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda ularda turli bilim berish va uni amaliyotga joriy etish bo'yicha vazifalar shakllangan. Ushbu vazifalar quyidagi modellarda o'z aksini topadi:

Universitet 1.0–ushbu modelga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining asosiy e'tibori iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning alohida sektorlarida faoliyat yuritish olish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Ular o'z oldiga samarali ta'limga erishish missiyasini qo'yadilar.

Universitet 2.0–shunday ta'lim muassasalarini ifodalaydiki, ularda asosiy o'rinni tadqiqotchilik ishlari va ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish egallaydi. Samarali ta'limga erishish missiyasiga yangi funktsiya–ishlab chiqarish sektorida foydalanish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish qo'shiladi.

Hozirgi sharoitdagi rivojlanishning zamonaviy bosqichi universitetlardan iqtisodiyotni rivojlantirishga ilmga asoslangan holda yanada faolroq hissa qo'shishlarini talab etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etgan holda yuqori texnologiyalar asosida faoliyat yuritadigan yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini shakllantirishga erishish eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalar tamomila "Universitet 3.0" modeli asosida ro'yobga chiqariladi.

"Universitet 3.0" modelini amaliyotga joriy etish bilan o'z faoliyatini moliyalashtiradigan manbalarni mustaqil tarzda jalb eta oladigan oliy ta'lim muassasalari shakllantiriladi. Shuningdek, ta'lim berishda innovatsion usullarni qo'llashga, tadbirkorlik sohasi bilan uzviy aloqani yo'lga qo'yishga, universitetda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlanmalarini ishlab chiqarishga bevosita joriy etish imkoniyatlariga erishish ham ushbu model asosida erishiladi (Lane, 2013).

"Universitet 3.0" modelini, ya'ni bilimlarni tijoratlashtirishga asoslangan universitetlarni rivojlantirish Amerika Qo'shma Shtatlarida shakllangan. O'zbekiston uchun "Universitet 3.0" modelini shakllantirish o'ta jiddiy ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shunday universitetlar jamiyatni modernizatsiya qilishda, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy sharoitlarda qo'yidagi sabablarga asosan oliy ta'limning missiyasi va mazmuni o'zgaradi:

1) Oliy ta'limning davlatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatini amalga oshirishdagi rolini kengayishi.

2) Raqobatli bozor sharoitida oliy ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash.

3) Oliy ta'lim tomonidan berilayotgan bilimlardan o'zi uchun yuqori naf olishga intilish.

4) Eng yaxshi talabaga, o'qituvchiga, amaliy tadqiqotlarni joriy etishga ega bo'lish uchun oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning kuchayishi.

5) Bir necha fanlarning o'zaro bog'liqligini ko'zda tutuvchi va bundan yuqori nafilikni ta'minlash imkoniyatlarini beruvchi tadqiqotlarni amalga oshirilishini faollashuvi.

6) Nazariy va amaliy tadqiqotlarning integratsiyalashuvi hamda bu tadqiqotlarni amalga oshirilishini moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlash uchun hukumatdan tashqari alternativ moliyalashtirish manbalariga bo'lgan yuqori talabning paydo bo'lishi natijasida yirik ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi.

Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida oliy ta'limni iqtisodiyotni real sektoridagi ilg'or ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo'lida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash iqtisodiyotdagi radikal o'zgarishlarni amalga oshirilishiga hamda yangi texnologiyalarni yuzaga kelishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Vaholanki, xalqaro Global Innovatsion Indeks ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 2030 yilda 50 ta davlatlar qatoriga qo'shilishi innovatsion rivojlanish strategiyasining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Ta'kidlash joizki, 2015 yilda O'zbekiston 80 ga yaqin ko'rsatkichlari bilan baholanadigan Global innovatsion indeks ko'rsatkichida 122 o'rinni egallagan, biroq oxirgi uch yil davomida O'zbekiston ro'yxatga kiritilmagan. Innovatsiya vazirligi mamlakatning hozirgi mavjud innovatsion rivojlanish holati tahlili natijalarini e'tiborga olgan holda dunyoda raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitalini mamlakatni innovatsion rivojlantirishda eng asosiy omillardan biri deb belgiladi. Bu esa ta'limning sifatini oshirish va qamrovini kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kadrlarni tayyorlashdir. Shuningdek, ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, ilm, fan va biznesning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi mexanizmlarni shakllantirish zarurdir. Aynan "Universitet 3.0" modeli ana shunday modellardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu model tarkibiga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan akademik bilimlarni tovar sifatida tijoratlashtirish, yangi biznes faoliyatlarni shakllantirish, foyda olish maqsadida intellektual mulkni boshqarish kabilar kiradi. Zamonaviy "Universitet 3.0" modeli jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish missiyasini o'zida mujassam etadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Fikrimizcha, "Universitet 3.0" modelini shakllantirishda quyidagi dastlabki modellarni hisoblangan tarmoq, kreativ va innovatsion va tadbirkorlik yo'nalishidagi universitetlar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu 3 ta modelning uyg'unlashuvi oliy ta'limga o'zining yangi missiyasini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

"Tarmoq universiteti" fan va ta'lim hamkorligiga, fanlararo tadqiqotlarga, bir biriga bog'langan fan dasturlariga, masofali ta'lim berishga, akademik mobillikdan iborat bo'ladi. Ijodiy hamkor tarmoq ta'limda xilma-xillik tamoyilini qo'llash, dars berish jarayonlariga tashqaridan mutaxassislarni jalb etish, talabalarga aniq fanlardan chetlanish imkoniyatini yaratadi. Bunday tarmoqlar ilmiy- tadqiqot klasterlarini yaratish orqali o'qituvchilar bilan turli bilim soxalaridan mutaxassislar hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy universitetning yuqori texnologik tashkilotlar, tadqiqot olib boruvchi institutlar bilan tarmoqlangan hamkorlikni yo'lga qo'yish va amal kilish asosida ochik innovatsiyalar kontseptsiyasi yotadi. Bozorda ochiq ishtirok etish mantig'iga ko'ra kompaniyalarga tashqi, bizning xolatda universitetdan g'oyalarni va ishlamlarni kirib keladi. Bu esa o'z navbatida tarmoqlangan samara keltiradi. O'zining bilim olish muhitining tarmoqlangan tipdagi ilmiy-ta'lim beruvchi tizim sifatida shakllantiradigan va uni rivojlantirishda ochiq innovatsiyalardan foydalanuvchi zamonaviy universitet bilimlar iqtisodiyotida global kommunikatsiya bo'g'iniga aylanadi. Bunday universitetlar bilan hamkorlik munosabatlari ishlab chikarish tuzilmalariga yangi g'oyalarni taklif etish bilan bir qatorda ularga ijodkor xodimlarni jalb etishga ham yordam beradi.

"Kreativ universitet" - bu ijodiy muhit tizimi, talantlarni jalb etish va kontsentratsiyalash (markazlashtirish) uchun vositadir. Ijodiyot tadbirkorlikka, innovatsiyalarga, iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Bunda gap madaniyatli mahsulot yaratish, bilan bir qatorda ilmiy kashfiyotlar va texnologik yangiliklar haqida bormoqda.

"Innovatsion va tadbirkorlik universiteti" fan va texnikani rivojlantirishda iqtisodiy ahamiyatini inovatsiyalarni oldindan ko'ra olish ya'ni doimiy ravishda o'z o'zini yangilab borish holatida bo'lishi zarur. iqtisodiy sohadagi kompetentsiyasini kengaytirishda va ular bevosita iqtisodiy faoliyatiga jalb etish hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi kontseptsiyasida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" modelini bosqichma-bosqich joriy etishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

-xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalari tarkibida texnopark, texnologiyalar



transferi, startap markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

-professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

-byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish;

-nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

-OTMning akademik mustaqilligini ta'minlash;

-o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilg'or standartlarni joriy etish (Farmon, 2019).

Shuningdek, bizning fikrimizcha, oliy ta'limni "Universitet 3.0" modelini bosqichma-bosqich joriy etishda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlash avvalo o'quv jarayonlarining sifatini takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki yaxshi o'zlashtirilgan bilimlar yangi g'oyalarning shakllanishiga va amaliyotga joriy etilishiga sabab bo'ladi (Davlyatova, Abdullaeva, 2019). Shuning uchun, hozirda oliy ta'limda o'quv jarayonlari sifatini yaxshilashda ta'limning asosi hisoblangan quyidagi jihatlarga e'tiborni chuqurroq qaratish ta'limning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi:

1. Ishlab chiqarish korxonalarini bilan integratsion hamkorlik aloqalarini mustahkamlash uchun sanoat korxonalarining ma'suliyatini oshirishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Chunki hozirda qabul qilingan barcha hujjatlarda, jumladan 2017 yil 27-iyulda qabul qilingan PQ 3151 –sonli qarorda ham asosiy ma'suliyat va tashabbus oliy ta'limga yuklatilgan (Qaror, 2017). Korxonalarining oliy ta'lim bilan o'quv, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy ishlardagi hamkorligi aks ettirilgan statistik hisobotlarning shakllantirilishi va yuritilishi hamda tegishli tartibda taqdim etilishining tashkil etilishi korxonalar ma'suliyatini oshiradi. Sanoat korxonalarining o'lchami, quvvati asosida hamkorlikda ishlaydigan oliy ta'lim muassasalari sonini kvota tariqasida o'rnatish va agar korxonada bu ma'suliyatli ishni bajarmagan holatda ularga daromadidan jarima solinishining belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Ma'ruza soatlari hajmi kamaytirgan holda ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy ishlashini ko'zda tutuvchi amaliy yo'naltirilgan mashg'ulotlarning soatini ko'paytirishga erishish. Bu bilan esa talabalarning boqimandalikdan chiqarish, ya'ni talaba "o'rganuvchi-yaratuvchi-tadbiq etuvchi" sifatida shakllanishi imkoniyatlarini yaratish.

3. Mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladigan dars mashg'ulotlarini korxonada mutaxassislari bilan birgalikda tashkil etishni ta'minlovchi tizimni yaratilishi va aynan dars mashg'ulotlarini korxonada o'tkazilishini tashkil etilishini ta'minlash.

4. Darslik va o'quv qo'llanmalarining tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, darslikda dastlab mavzuning ahamiyati va uni qo'llanish sohasini asoslangan holda yoritilishini, so'ngra mavzuga tegishli tushunchalar bayon etilishini, mavzu doirasidagi aniq xodisa va voqealik misol tariqasida keltirilishi hamda mustaqil o'zlashtirilishi uchun vaziyat tahlili, testlar va nazorat savollari taqdim etilishi asosida talabaning adabiyotni o'zlashtirishini yengillashtirish imkoniyatini yaratish.

Xulosa qilish mumkinki, hozirgi kundagi ta'lim mazmuni ko'proq ishlab chiqarishda yuksak iqtisodiy samara olish, insonning shaxsiy manfaatlarini mumkin qadar to'liqroq qondirish masalalariga qaratilgan yoki boshqacha aytganda har qanday bilim zaminini yuqori iqtisodiy samara va foydadorlik tashkil etadi. Yuqori iqtisodiy samarani ta'minlash masalasining oqilona hal etilishi esa mamlakat qudratini oshirishga, uning kelajagi va nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Davlyatova G.M., Abdullaeva C.X. (2019) *Systemic principles and regularities of commercial enterprise as a socio-economic system*. // *Journal of Economy and Business*, (6-1). p.95. Doi <https://dx.doi.org/10.24411/2411-0450-2019-10827>. <https://cyberleninka.ru/article/n/18235040>

Farmon (2017) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni*. – Toshkent, 2017 yil 7 fevral. Manba: <http://press-servis.uz>.

Farmon (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni*. – Toshkent, 2018 yil 21 sentyabr.

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2019 yil 8 oktyabr.

Gafurova F.S., Davlyatova G.M. (2019) Identification and mobilization of reserves of the rational use of resources as a factor of increasing production efficiency. *Problems of modern science and education.*, 12 (145) Part 1. P.52. Doi <https://portal.issn.org/resource/ISSN/2413-4635>

Lane, J.E. (2013) *Higher Education Systems 3.0: Harnessing Systemness, Delivering Performance*/ J. E. Lane, D. B. Johnstone. – SUNY Press., – 336 p.

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori. – Toshkent. 2017 yil 27 iyul. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli Qarori. – Toshkent. – 2017 yil 22 may.

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori. – Toshkent, 2018 yil 5 iyun.

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori. – Toshkent. – 2018 yil 20 oktyabr.

Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. № 406. – Toshkent. – 2016 yil 14 sentyabr.

Abdullaeva Sevarakhon KHasanovna / *Issues of Ensuring Economic Stability in the Textile Industries.* // JournalNX – 2020. VOLUME 6, ISSUE Doi <https://media.neliti.com/media/publications/335549-issues-of-ensuring-economic-stability-in-de5aaaf9.pdf>

Новиков А.М. (2002) *Методология образования.*/ М.: Эгвес, - 320 с.